

AMIR TEMUR-BUYUK DAVLAT ARBOBI

Abbosov Shaxzodbek

Odilov Bekmurod

Komiljonova Mohinur

Annotatsiya: Mazkur maqola Soxibqiron Amir Temur xayot yo'li ,siyosiy va xarbiy faoliyati, mardonavor janglari aks etgan.

Kalit so'zlar: Buyuk, davlat, sarkarda, ilm-fan, shoir, qo'shin, madaniyat, shajara, harbiy yurishlar, kuch-qudrat, janglar, kurashlar.

Amir Temur (to'liq ismi Amir Temur ibn Amir Tarag'ay ibn Amir Barqul) 1336-yil, 9-aprel Kesh hozirgi (Shahrisabz) yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'i - o'rta asrning yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda, kuchli, markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysi. Amir Temurning onasi Takina xotun Buxorolik. Otasi Amir Tarag'ay esa Barlos urug'inining oqsoqollaridan hamda Chig'atoy ulusining e'tiborli beklaridan hisoblangan. Temurning shaxsiyati shakllanishiga va kamolot darajasiga yetib borishida uning otasi Tarag'ay bohodir va birinchi ustozlari Mulla Alibek, Samarqandning mashhur so'fi va olimi Shayx Shamsiddin Kulollarni xizmatlari katta bo'lган. Yosh Temur boshlang'ich ilm, ayni holda harbiy fanlar, diniy ilmlarni "Qur'oni Karim" hifz (yod olgan) etgan. Amir Temurning yoshligi Keshda kechdi. Yetti yoshga to'lgach, otasi uni o'qishga berdi. Amir Temurning yoshligi maxsus murabbiylar nazorati ostida chavandozlik, ovchilik, kamondan nishonga o'q uzish, boshqa turli mashq harbiy o'yinlar bilan mashg'ul bo'lган.

Amir Temur o'zining ilk harbiy faoliyatini qo'l ostida navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan; ularning o'zaro kurashlarida qatnashib, jasorat ko'rsatgan, janglarda chiniqqan, harbiy mahoratini oshirgan. Dong'i butun Qashqadaryo vohasiga yoyilgan.Amir Temurning aqlu zakovati, shijoati va shuhrati uni Mavaraunnahrning nufuzli amirlaridan amir Xizr Yasavuriy va amir Qazog'on bilan yaqinlashtirdi. Xondamirning yozishicha, otasi amir Tarag'ay Amir Temurni avval (1355) amir Joku barlosning qizi Nurmushk og'oga, so'ngra o'sha yili (1355) Qozag'onning nabirasi va amir Husaynning singlisi O'ljoy Turkon og'oga uylanadi. Keyingi nikoh tufayli Amir Temur bilan Balx hokimi amir Husayn o'rtasida ittfoq yuzaga kelib, ular birgalikda mo'g'llarga qarshi kurashdilar. Amir Temur hayoti va faoliyatida ikki davr yaqqol ko'zga tashlanadi. Birinchi davr (1360-1385) Movaunnahrni mo'gul xonligidan ozod qilib yagona markazlashgan davlat tuzish va o'zaro urushlarga barham berish. Ikkinci davr esa (1386-1405) ikki yillik, uch yillik, besh yillik deb ataluvchi va boshqa mamlakatlarga yurishi bilan xarakterlanadi. Amir Temur ko'p janglar qildi va bu jangler davomida Egey va O'rta yer dengizidan to

Hindistonning g'arbi, Mo'g'uliston Xitoygacha Ural tog'lari Moskva ostonasi, Denepr bo'lgan hududlarni zabit, eta oldi. O'z harbiy yurishlari natijasida 27 ta mamlakatni o'ziga bo'ysundirdi. Fosih Havofiy o'zining "Mujmal - i- osixiy" kitobida ma'lumot berib o'tadi.

Shu tariqa Amir Temur buyuk sultanatga asos solib, feodal tarqoqlikka, tinimsiz davom etayotgan urush janjallarga barham berdi va nihoyat shu sultanatda osoyishtalik yaratdi. Savdo- sotiq, madaniyat, ilm- fan, obodonchilik va me'morchilik yuksak darajada rivojlandi.

Amir Temurning Movarounnahrni birlashtirish yo'lidagi harakati 14- asrning 60-yillari boshlaridan boshlandi. 14-asrning 50-yillari oxirida Movarounnahrda amirlarning o'zaro kurashi kuchayib amir Qazog'on o'ldirildi. Mamlakatda siyosiy parokandalik avjiga chiqib, og'ir tanglik sodir bo'ldi. Ma'lumotlarga qaraganda, ulus o'nga yaqin mustaqil bekliklarga bo'linib ketgan. Samarqand viloyatida amir Bayon Sulduz, Keshda amir Xoji Barlos, Xo'jandda amir Boyazid Jaloir, Balxda Uljoy Bug'a Sulduz, Shibirg'onda Muhammad Xoja Aperdi nayman, Ko'histonda Badaxshon shohi Amir Sotilmish, Xuttalonda Kayxusrav, Hisori Shodmon hududida amir Husayn bilan o'z hokimi mutlaq deb e'lon qiladilar.

Barlos Xurosonga qochadi. Manshunday og'ir pallada siyosat maydoniga Amir Temur kiradi. Mo'g'ullarga qarshi kurashish uchun kuchlar nisbati teng emas edi. 24-yoshli Amir Temur 1360- yilning boshida Tug'luq Temur tomonidan Keshga yuborilgan beklar bilan kelishadi. Sharoit taqozasi bilan xon, xizmatiga o'tib uning yorlig'I bilan o'z viloyatlarining dorug'asi etib tayinlanadi. Bu esa uning keying ishlarini boshlanishiga turki bo'ladi. Amir Temur Hirotni olish uchun yoniga eng jangovar bo'lgan navkarlarni to'playdi. Amir Temur hiyonatni kechirmagan xususan, Isfahon aholisi Temurning ishonchini suiste'mol qilgani uchuning qahriga uchraydi. Mzakur yurishlar 1382-1387 yillar davomida sodir bo'lgan.

Amir Temur To'xtamish bilan Oltin O'rda hukmdori murosa qiladi, lekin To'xtamishxon uning yaxshiligiga yomonlik qilgani bois 1391-1395-yillar Oltin O'rdaga yurish qilib, bu davlatni tugatganidan tarixchilar yaxshigina xabardor. Amir Temur Hindiston poytaxtiga (Dehliga) lashkar tortish borasida qilgan ishlari haqida bat afsil ma'lumotlar berib o'tiladi. "Kobulda o'ttiz ming javong'ar otliq askari bilan turgan amirzoda Pirmuhammad Jahongir Sulaymon tog'i orqali yurib, Sind daryosidan o'tgach, Multon viloyati ustiga to'satdan bosqin qilishni buyurdim. O'zim ming qo'lning (temuriylar davrida oliy bosh qo'mondon tomonidan boshqaradiladigan markaziy qism) otliq askari bilan bo'ldim Hindostonga yurishga jamlangan qo'shinlarim umumiylar soni to'qqson ikki ming otliqqa yetgan edi.

Amir Temurning yurishlari ichida eng zafarlisi va eng taxsinga loyig'i Hindiston yurishi bejiz emas. Bu yurish qaroriga kelishi va oqilona yani Qu'roni Karimga murojaat qilishi va Haq taollaning izmi ila yurish qilgani ahyamiyatga ega. Mazkur

yurish 1398- yildan boshlanib, 1399- yil 18-dekabrda Dehlini zabit etishi bilan nihoyasiga yetadi. Keyin esa Amir Temur Gurjistonga yurish qilgan bunga sabab Iroq hokimlaridan arznama kelgan va ular chegarani buzib, hadlaridan oshgan emishlar. Shu saba Amir Temur Gurjistonga yurish qiladi, 1399- yil 18- dekabrda Dehlini zabit etishiga qo'shladi. Amir Temur har bir janglardan oldin albatta kengash chaqirar edilar. Chunki kengash va amirlar bilan fikr mulohaza almashib bitta qaror qaror qabul qilinar edi. Bu kenglashlarda agar dushman davlat ustiga yurish qilish ishlari ko'rib o'tilsa, u kishi yarashish yo'llarini ko'rib o'tardilar. Amir Temur o'z faolitida doimo to'grilik, halollik, kabi sifatlariga alohida e'tibor bergenlar. Chunki bu xususiyatlar mamlakat hayotida davlat boshqaruvi ijtomiy, iqtisodiy, siyosiy jaroyanlarni boshqarishda alohida o'rinni kasb etadi.

Bilamizki, Amir Temur davlatni boshqarishda bir tamoyillarga alohida e'tibor bergen.

Xususan "Temur Tuzuklari" da keltirilgan bir qator mamlakat hayoti uchun dolzarb mavzular haqida keltirib o'tilgan. 1404- yilda Gurjiston podshosi Geogriy bilan sulh tuzgan. Amir Temur Rum podshosi Boyazid Yildirim (1359-1403) va Misr shohi Malik Barquq, uning Malik Farajlar(1399-1405) bilan kelishmovchiliklar yuzaga keladi, ular Amir Temur bilan murosaga kelmay, ularga qarshi ig'vo uyushturadilar. Turkmanlardan Qora Yusuf 5 ham ular tomonda bo'ladi . Natijada, Amir Temur buni bartaraf qilish uchun qo'shin to'plikashga majbur bo'ladi. Avval ishni Misr sultonidan boshlaydi Bu haqida asarda quyidagicha : barcha keltirilgan faktlar aniq va to'g'riliqi va hammasi ochiq oydin bayon etilgani haqida ma'lumot keltirilib o'tiladi. Hims va Hasab orqali u yerga tomon yo'l oldim. Halab shahriga yetganimda Misr podshosi meni Damashqqa kelayotganimni eshitib, shoshilinch bilan Misrdan Damashqqa qarab yo'l olgani haqida xabar keltirdilar. Men esa zudlik bilan shomga yo'l oldim deb keltirib o'tiladi. Amir Temur dasturi va siyosiy- huquqiy qarashlarida mukammal jamiyatni orzu qilishdan ko'ra, ko'proq uni amalga oshirish hamda uni mas'uliyatini o'z zimmasiga olish yaqqol sezilib turadi. Shuning uchun ham Amir Temurning davlat arbobi, sarkarda va mutafakkir sifatidagi o'ziga xos tomoni shundaki, u o'zi hukmronlik qilgan saltanat (imperiya) timsolida mukammal jamiyatni qurdi va uni har tomonlama mustahkamlashga harakat qiladi. Amir Temur siyosiy ta'limotining muhim jihatni jamiyatni boshqarishda qonunning ustuvorligi qonunchilik masalasidir. Temur saltanatni boshqarishning asosiy sharti , qonunning hamma amallaridan ustunligini tan olish va uning asosiy qoidalarini yaratishdan iborat bo'ladi. Temurning qonun ustuvorligi tamoyili zaruriy shart ekanligi haqidagi xulosasida, qonunning, ustuvorligi juda teran qo'yilgan: bu goya Sohibqironning ongida Imom Ismoil Buxoriy, Imom Abu Iso at- Termiziy , Forobiy, Taftazoniyarning huquqiy ta'limotlarni Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoyasini" uning "Muxtasar" ini mакtab va madrasada o'rganib olimlar bilan birgalikda fikr mulohazalar olib boriladi.

Temurning siyosuy tamoyili markazida inson turdi. Temur o'z davrida sultanat manfaatini bo'y sindira olgan davlat rahbari edi. Temur siyosiy qarashlari tizimining muhim tomoni shundan iboratki, U har bir siyosiy hal etishdan oldin shu sohaning bilimdon odamlari, olimlari bilan maslahatlashib so'ngra qaror qilar edi. Uning olimlar bilan qiladigan maslahatlari turli shakl va natijalari yuqori darajada bo'lar edi. Shuni aytib o'tish kerakki, 14-15 asr mutafakirlari o'z ijodlari va g'oyaviy qarashlaridaadolatli va ma'rifatparvar shohning eng oliy sifati qilib birlari adaolatni ko'rsatsalar, boshqalari aqlni , uchinchi toifadagilar esa - ahloqiy sifatlarni ko'rsatganlar. Shunisi qiziqarlik, agar ular o'zlarining " Ideal davlat " nomli g'oyaviy hayolotini nazariy jihatdan ta'riflagan bo'lsalar, 14- asrga kelib Amir Temur uni amalda qo'lla oldi va uzida bu xislat va xususiyatlarni mujjasamlashtirganadolatli hukmdor siftida maydonga chiqdi. O'z sultanati siyosatini tasavvuf asosiga qurgan Temuradolat bayrog'ini baland ko'tarib xalqnni quruq qonun - qoidaga emas, balki insoniy tartib-intizomga bo'ysunishga chaqirgan . Chunki Temur insoniy tartib- intizimga ilohiy tus berib, uni muqaddas deb biladi va shuning uchun ham yomomlikni maqsad qilgan. Kishilarni jilolovchi va yaxshilik yo'lida jafo chekuvchilarn quvvatlovchi har qanday podsho va hokimga bo'ysunish kerak deb hisoblaydi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, buyuk sarkarda Amir Temurning davlat boshqaruv sohasida, hamda ichki va tashqi siyosatda amalga oshirilgan islohatlari o'z davrida uning sultanatini yanada mustahkam bo'lishiga olib kelgan. Hozirgi kunda kundan – kun gullab – yashnab borayotgan Mustaqil O'zbekiston Respublikasi amalgaloshirilayotgan keng ko'lamli islohatlar ham davlat boshqaruv sohasida mamalakatimizning ertangi kuniga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlab buyuk davlat arbobi Amir Temur tajribadsini chuqur o'rganib amalda buyuk bobolarimiz tajribasidan unumli foydalanilayotgan isbotidir. Bu esa xzalqimiz kelajagi uchunadolatli turmush yaratib berish yo'lida qiyanalayotgan sa'y – harakatning samarasidir. Amir Temur va Temuriylar davri, davlatchiligi ma'naviyati o'zining salohiyati, mazmuni tarbiyaviy kuchi va ta'siri bilan xalqimiz tarixida alohida o'rinn tutadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

- 1.Amir Temur . "Temur tuzuklari"- T : Ilm-ziyo-zakovat, 2020-B131
- 2.R.Shamsutdinov, X.Mo'minov. "O'zbekiston tarixi"-T"Akademnashr"2019.
- 3.Karimov I.A. "Tarixsiz kelajak yo'q"-T "SHARQ" , 1998.
4. Mo'minov I . Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli.
5. Ergashev Q . O'zbekiston tarixi. -T; G'afur G'ulom, 2015.
6. Azamat Ziyo O'zbek davlatchiligi tarixi T: 1996
7. Ibn Arabshoh Amir Temur tarixi 2 jildlik . T: "Mehnat" 1992.